



**ILMIY TADQIQOTLAR, INNOVATSIYALAR VA ILMIY-PEDAGOGIK
KADRLAR TAYYORLASH BO'LIMIDAN**

MA'LUMOTNOMA

Oriental universiteti "Innovatsion pedagogika va psixologiya" jurnalining 2026-yil, 1-soni uchun Oriental universiteti, Pedagogika kafedrasi pedagogika fanlari bo'yicha fan nomzodi, dotsent Abdujabbarova Feruza Abdunazarovna va katta o'qituvchi Rustamova Barno Abduxalilovna "O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni she'riyat vositasida rivojlantirishning ahamiyati" nomli maqolasi chop etish uchun tahririyat tomonidan qabul qilindi.

**Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar
va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash
bo'limi boshlig'i:**



R.A. Alimuxamedov

O'QUVCHILARDA MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI SHE'RIYAT VOSITASIDA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Abdujabbarova Feruza Abdunazarovna

Oriental Univeriseti

Uzluksiz ta'lim pedagogikasi kafedrası dotsenti

filologiya fanlari nomzodi

feruzaabdujabbarova@yandex.com

<https://orcid.org/0000-0002-9348-8484>

[+998998386921](tel:+998998386921)

Rustamova Barno Abduxalilovna

Oriental Univeriseti

Uzluksiz ta'lim pedagogikasi kafedrası

katta o'qituvchisi

barnor998@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0007-0323-1890>

Аннотация

Mazkur maqolada tarbiya fanini o'qitish jarayonida o'zbek she'riyatidan foydalanishning ilmiy-pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. O'zbek mumtoz va zamonaviy she'riyatida Vatan, milliy g'urur, ajdodlarga hurmat, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar masalalari qanday badiiy ifodalangani ochib beriladi. Alisher Navoiy, jadid adabiyoti namoyandalari, shuningdek, mustaqillik davri shoirlari ijodida Vatan obrazining tarbiyaviy imkoniyatlari ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Maqolada tarbiya fanining "Vatan" mavzusini o'qitishda Shavkat Rahmonning "Sulaymon tog'i etagida o'ylaganlarim" she'ridan foydalanish orqali o'quvchilarda vatanparvarlik, milliy o'zlik va ma'naviy mas'uliyat tuyg'ularini shakllantirish usullari ko'rsatib beriladi. Interfaol ta'lim metodlarining samaradorligi ham asoslanadi.

Kalit so'zlar: tarbiya fanini o'qitish, o'zbek she'riyati, vatanparvarlik, ma'naviy-axloqiy tarbiya, Shavkat Rahmon, interfaol metodlar.

Аннотация

В статье рассматривается педагогическая и воспитательная значимость использования узбекской поэзии в преподавании предмета «Тарбия». Анализируются художественные интерпретации образа Родины,

национальной гордости, уважения к предкам и духовно-нравственных ценностей в классической, джадидской и современной узбекской поэзии. На основе произведений Алишера Навои, представителей джадидской литературы и поэтов периода независимости раскрываются воспитательные возможности поэтического слова. Особое внимание уделяется анализу стихотворения Шавката Рахмона «Сулаймон тоги этагида ўйлаганларим» в контексте формирования у учащихся патриотизма, национального самосознания и моральной ответственности. Обосновывается эффективность применения интерактивных методов обучения.

Ключевые слова: преподавание предмета «Тарбия», узбекская поэзия, патриотизм, духовно-нравственное воспитание, Шавкат Рахмон, интерактивные методы.

Abstract

This article examines the pedagogical significance of using Uzbek poetry in teaching the subject Tarbiya (Moral and Civic Education). It analyzes the artistic representation of the concepts of homeland, national pride, respect for ancestors, and moral values in classical, Jadid, and contemporary Uzbek poetry. Drawing on the works of Alisher Navoi, Jadid writers, and poets of the independence period, the study highlights the educational potential of poetic texts. Particular attention is paid to the analysis of Shavkat Rahmon's poem "Thoughts at the Foot of Mount Sulayman" as an effective means of fostering patriotism, national identity, and moral responsibility among students. The article also substantiates the effectiveness of interactive teaching methods in moral education.

Keywords: teaching, Uzbek poetry, patriotism, moral education, Shavkat Rahmon, interactive methods.

KIRISH

O'zbek xalqi madaniyatiga, xalqning ongiga asarlar osha chuqur singdirilildan milliy tarbiya, ma'naviy-axloqiy mezonlar hayotimizning har bir jabhasida, jahonning ma'naviy-axloqiy maydonida o'zining muhim o'rniga egadir.

Tarbiya jarayoni ta'lim bilan uzviy bog'langanligi azaldam ma'lum, ajdodlarimizning ma'naviy olamidagi eng sobit ma'naviy qarashlar ham she'riyat orqali anglatilgan, o'zbek mumtoz adabiyotidagi g'azallar, dostonlar bunga yorqin misol bo'la oladi.

"She'r" degani aslida "shuur" so'zi bilan o'zakdosh [O'zbek tilining izohli lug'ati 2023.]. Ya'ni shuurga- inson ongiga, sezimlariga ta'sir etuvchi kuch

demakdir. Shoir esa she'r vositasida shuurni uyg'otuvchi, tarbiyat etuvchi siymodir . Shu ma'noda o'zbek she'riyatida mudom o'z vazifasini a'lo darajada uddalab kelayotir.

Haqiqiy she'r hissiy-emotsional silsiladan iztirobdan, darddan tug'iladi.

O'zbek she'riyatida lirik kechinmalarining deyarli har bir tovlanishi uchun zalvorli, ma'naviy quvvatga ega lirik ifodalar mavjud. Millatimiz tarixida, ma'naviy dunyosida, ta'lim- tarbiya tizimida har bir lirik qahramon o'z "meni" orqali kechinmalarini, hayajoni, kuzatishlari va xulosalarini nazmda ta'sirli namoyon etadi: Vatanga Muhabbat- Buyuk Ishq- Ajdodlar ruhiga hurmat, Tabiatdan hayratlanish- Sog'inch- Iztirob kabi chizgilar she'riyatning go'zal tizimlari sanaladi.

Adabiyotimizda Vatanga muhabbat tuyg'usi masalasi milliy tafakkur, tarixiy xotira va ma'naviy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq holda tadqiq qilinmoqda. Ayniqsa, she'riyat janrida bu tuyg'u badiiy-estetik vositalar orqali yuksak darajada ifodalanib, adabiyotshunoslar e'tiborida doimiy asosiy mavzu sifatida namoyon bo'lgan.

Tarbiya fanini paydo bo'lishi va uni hayotga tatbiq jarayoni ham bugun yuzaga kelgani yo'q. Bu ilm bizga azaldan avvaldan meros bo'lib kelmoqda, ta'lim oluvchining komil inson darajasiga yetkazish masalasi asrlar davomida o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Klassik o'zbek adabiyoti namunalarida Vatan tushunchasi ko'pincha yurt, el, ona zamin timsollari orqali aks etgani qayd etiladi. Alisher Navoiy ijodida Vatan muhabbati insoniy kamolot va ijtimoiy mas'uliyat bilan uyg'un holda talqin etilgan. Tadqiqotchilar Navoiy she'riyatida Vatan faqat geografik makon emas, balki ma'naviy-axloqiy qadriyat sifatida talqin qilinishini ta'kidlashadi [Karimov, 2008; Hayitmetov, 1990].

XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi jaded adabiyoti vakillari — Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Fitrat ijodida Vatanga muhabbat g'oyasi milliy uyg'onish, istiqloq va ozodlik mafkurasi bilan chambarchas bog'liq holda ifodalangan.

Cho'lpon she'riyatida Vatan obrazi iztirobli, ammo umidga yo'g'rilgan ruhda tasvirlanib, milliy o'zlikni anglashga da'vat etuvchi badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi [Yo'ldoshev, 2016].

Sobiq Sho'ro davri o'zbek she'riyatida Vatanga muhabbat mavzusi mafkuraviy talqinlar ta'sirida rivojlangan bo'lsa-da, ayrim shoirlar ijodida milliy ruh va tarixiy xotira unsurlari yashirin yoki ramziy tarzda saqlanib qolgan. G'afur G'ulom, Hamid Olimjon va Oybek she'riyatida Vatan obrazining ijtimoiy mehnat, xalqparvarlik va tarixiy meros bilan bog'liq jihatlari adabiyotshunoslar tomonidan alohida tahlil qilingan [Quronov, 2004].

Mustaqillik davri o‘zbek she‘riyatida esa Vatanga muhabbat tuyg‘usi yangi badiiy-estetik bosqichga ko‘tarildi. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf ijodida Vatan obrazlari samimiylik, tarixiy g‘urur va milliy o‘zlikni anglash ruhida talqin etiladi. Tadqiqotlarda bu davr she‘riyatida Vatan tushunchasining ona, til, xotira, ajdodlar ruhi kabi konseptlar bilan lingvomadaniy jihatdan bog‘lanishi qayd etiladi [Rahmonov, 2018; Karimova, 2020].

So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlarda Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish masalasi pedagogik va lingvomadaniy yondashuvlar asosida o‘rganilmoqda. Xususan, she‘riy matnlar orqali yosh avlodda vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirish, badiiy obrazlarning tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash masalalari dolzarb tadqiqot yo‘nalishiga aylangan [Ismoilova, 2021].

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek she‘riyatida Vatanga muhabbat tuyg‘usi tarixiy taraqqiyot bosqichlariga mos ravishda turlicha badiiy va mafkuraviy talqinlarga ega bo‘lib, u milliy o‘zlikni shakllantirishda muhim estetik va tarbiyaviy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy maqolada tavsifiy-tahliliy, qiyosiy-tarixiy hamda lingvomadaniy tahlil metodlaridan foydalanildi. O‘zbek she‘riyatida Vatanga muhabbat tushunchasining badiiy talqinlari tarixiy davrlar kesimida o‘rganilib, har bir bosqichga xos g‘oyaviy-estetik xususiyatlar aniqlandi.

She‘riy matnlar semantik va konseptual tahlil asosida tadqiq etilib, “Vatan” konseptining ona, yurt, til, tarixiy xotira kabi lingvomadaniy birliklar asosida milliy tafakkurni shakllantirishdagi o‘rni muhokama qilindi. Shuningdek, adabiyotshunos va tilshunos olimlarning ilmiy qarashlari umumlashtirilib, muammo bo‘yicha mavjud konsepsiyalar solishtirma tahlil qilindi. Tadqiqot natijalarini asoslashda ilmiy manbalar, monografiyalar va maqolalardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tarbiya fanini o‘qitish jarayonida Shavkat Rahmonning “Sulaymon tog‘i etagida o‘ylaganlarim” she‘ri orqali Vatanni qadrlash, ajdodlarga hurmat, milliy g‘ururni shakllantirish usullari tahlil qilindi.

Tarbiya fanining “Vatan” mavzusiga oid dars mashg‘ulotida Shavkat Rahmonning “Sulaymon tog‘i etagida o‘ylaganlarim” she‘rini o‘rganish orqali o‘quvchilar ongida qadr tushunchasini anglatish maqsad qilinadi.

Bunda o‘qituvchi tomonidan yoddan ifodali qilib o‘qilgan she‘r matni katta ahamiyat kasb etadi.

Ulkan samimiyat bilan yozilgan bu go‘zal asar shunda o‘quvchilarning ham tafakkuri, ham ko‘nglidan joy oladi.

Ma‘lumki, o‘quv tahlili o‘quvchilar bilan o‘qituvchining birgalikdagi faoliyatidan iborat bo‘ladi. Doim ular matn ustida hamkorlikda ish olib boradilar. Demak, o‘qituvchi o‘quvchilarni matnga qiziqtirib, ularni tahlil jarayonidagi o‘z sheriklariga aylantirishi kerak bo‘ladi. Buning uchun bolalarning ko‘ngliga cho‘g‘ tashlashi, har satri zamiridagi ma‘noni topish sari yo‘naltirish zarur.

She‘r hajman kattagina bo‘lishiga qaramay, uning bandlari shiddatli musiqiylikka ega bo‘lgani, she‘rda shoirning ulkan samimiyati ufurib turgan uchun ham mazmunan, tekstual, ya‘ni matnga tayanib tahlil qilish asar mohiyatini anglash nuqtai nazaridan ham, o‘quvchilarda vatan tarixidan, uning shonli o‘tmishidan iftixor, ota yurtga muhabbat singari ezgu axloqiy sifatlarini shakllantirish jihatidan ham maqsadga muvofiq bo‘ladi. She‘rda Vatan va millat timsoli juda yorqin bo‘yoqlarda, uzoq tarixga qilingan xayoliy sayohat tasviri asosida mahorat bilan aks ettirilgan. U tarixiy bosqichlarning shunchaki sanoqlaridan iborat emas[Rahmonov S. 2018]. Asarda shoirning yoniq qalbi aks etgan.

“Sulaymon tog‘i etagida o‘ylaganlarim” she‘rining tahlili birinchi bandning ilk misralariga o‘quvchilar e‘tiborini tortishdan boshlanishi kerak:

Diyonatli, orli ajdodlar

Bu haybatli toshlar tagida

Biror lahza xayol surmasdan

Soxta shuhrat tama haqida [Shavkat Rahmon.2019]

O‘qituvchi o‘quvchilarga bu misralarda Shoirning o‘z ajdodlari sha‘niga ta‘zim bajo aylamoqni niyat qilgan, ularning buyukligi va kamtarligini aks ettirish naqadar mashaqqatli va mas‘uliyatli ekanligini anglatgach, ular e‘tiborini bandning keyingi qatorlariga qaratib:

Yasharkanlar yurtda sargardon

Kezarkanlar g‘urbatda yoxud

Sulaymon tog‘ poyiga bir kun

Ko‘milmakni qilganlar orzu

Bandni tahlil qilish topshirig‘ini berishi kerak. Shunday qilinsa, o‘quvchilar muallimning fikrlarini tinglab, ularni ma‘qullovchi dars ishtirokchilari emas, balki shu saboqning faol ijrochilariga aylanishga majbur bo‘lishadi. Ya‘ni asar matni anglatgan yashirin ma‘nolar haqida o‘ylay boshlaydilar.

“Sulaymon tog‘ poyiga bir kun

Ko‘milmakni qilganlar orzu

Bundan ne ne alloma o‘tgan,

Ne jahongir, nechalab shoir”

misralari xususida o‘ylab ko‘rishga undaladi.

Ma‘lumki, ko‘milmak- o‘lmoq ma‘nosini bergan [O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2023]. Ammo nima uchun uni orzu qilish kkk? Bu misralar yashirgan ma‘noni: sha‘n, or, vatanparvarlik tushunchasini qanday anglash mumkin? Shu kabi savollarga javob topish asnosida o‘quvchilarning yodiga darrov buyuk vatandoshlarimiz siymolari, ular haqidagi tarixiy ma‘lumotlar tushishi tabiiy. Keyin bolalardan buyuk yurtdoshlarini sanab o‘tishlari so‘raladi. O‘quvchilar axborot vositalaridan bilganlari, tarixdan o‘rgangan ma‘lumotlariga tayangan holda, ularni Shiroq, To‘marisdan boshlab, Mirzo Ulug‘bek, Bobur, Jalolidin Manguberdigacha [Rahmonov S. 2018] bo‘lgan allomayu vatan himoyachilari haqida so‘zlab beradilar.

She‘r yozilgan paytda bu o‘lkaning buyuk kishilari dovrug‘i uzoqlarga ketganligi sababi ustida ham bolalar o‘ylab ko‘rishlari joiz. Lekin bunda tarixiy haqiqatdan kelib chiqqan holda, g‘ayirlik, ochiq tarafkashlik yo‘lidan bormasdan, xolis baholashga o‘quvchilarni o‘rgatish lozim. Shu o‘rinda o‘qituvchi tomonidan Shavkat Rahmonning ham ijodkor, ham yurtsevar o‘g‘lon sifatidagi jasoratiga urg‘u berilishi, maqsadga muvofiq bo‘ladi:

Biroq aziz tog‘ toshlariga

Yozdirmasdan hech birin nomin

satrlarida shoirni bezovta qilayotgan nadomat tuyg‘usi ajdodlarga munosib avlod bo‘lish mas‘uliyati haqida, o‘ylab ko‘ring” kabi topshiriq berilishi, o‘smirlarning muqaddas qadriyatlar, muqaddas joylar haqida qancha ma‘lumotga ega ekanliklari aniqlashga, hamda ularda Vataniga bo‘lgan mehrini kuchaytirish imkonini beradi.

Ma‘lumki, boshlang‘ich sinflarda ular ona yurt haqida ancha – muncha asarlar o‘qishgan, yodlashgan. So‘ng o‘qituvchi o‘zi bilganlarni ham sanab beradi. Demak, ota- yurt, ona- Vatan to‘g‘risidagi she‘rlar nima ucnun bitilgani to‘g‘risida fikrlar to‘ldiriladi. Shu fikrlardan keyin, Shoirning

Sulaymon tog‘i yuksalib turar,

Bir elatning buyuk yodiday.

Xayron bo‘lib poyiga bugun

keluvchilar e‘tiqodidan,

bandiga o‘quvchilar e‘tibori tortiladi. Bu band tahlilida ziyoratga keluvchi odamlar harakatiga tog‘ning hayron bo‘lishiga o‘quvchilar e‘tibori tortiladi. Chunki tog‘ poyiga borayotganlar o‘z nomini tog‘ toshlariga yozib ketib, soxta shuhratga tama qilayotgan bo‘lishlarini tushunmasligi, bu haqda o‘ylab ham ko‘rmayotganligi, bunday harakatlar tabiatni asramaslik, ajdodlar ruhini qadrlamaslik kabi illatlarni keltirib chiqarayotgani shoirning qalbiga qanchalar o‘kinch solganini o‘quvchilar tushunib oladilar.

She‘rning keyingi bandi tahlili bir oz murakkabroq kechadi.

Bugun kelar istagan kimsa,
Berib tama ilinjiga berib zeb.
Nomin yozar tog‘ toshlarga
palonchilar kelib ketgan deb.

Chunki bu bandda o‘quvchilar uchun tushuntirilishi zarur bo‘lgan “tama ilinji”, “palonchilar” kabi so‘zlar va ular tashiydigan ko‘chma ma’nolar izohlanishi lozim.

Shunday qilinsa, o‘quvchilar “Kuzatarkan orsiz, vijdotsiz kimsalardan to‘ygan kunlarni, bir hayajon, titroqda tuydim yer tagidan kelgan unlarni” satrlarini izohlang tarzidagi topshiriqni bajara oladilar. Ya’ni ular bu satrlar ulug‘ shoirilar yurtning jamolidan g‘ururlanib yozgan she’rlar olamga yoyilganini, shoir ham vatanni ana shu ustozlari kabi sharaflamoqchi ekanini anglab etadilar. O‘quvchilar band oxiridagi: “yer tagidan kelgan unlarni” satriga ham e’tibor qaratishlari kerak. Shunda keyingi bandni izohlashlari osonroq kechadi.

Shoir o‘tmishni maqtamoqchi bo‘lmasada, lekin yurtning bir sodiq o‘g‘li sifatida uning tarixini o‘ylamasligi ham mumkin emas. Shu sababli shoir xayoli o‘tmishga ko‘chadi.

She’rda nima deyilayotgani muhim, lekin qanday aytilayotgani undan ham muhimroqdir. Shuning uchun ham Shavkat Rahmonning san’atkorligiga, odamning xotirasidan ko‘tarilmaydigan obrazlar yaratish mahoratiga o‘quvchilar diqqatini qaratish lozim.

Yuqoridagi didaktik tadbirlarni amalga oshirish asosida “Sulaymon tog‘i etagida o‘ylaganlarim” she’rini o‘rgatishga ajratilgan vaqtning birinchi soati yakunlanadi. Birinchi soat oxirroq‘ida o‘qituvchi tomonidan tuzilib, barcha o‘quvchilarga yetarli miqdorda tarqatmalarga ko‘chirilgan savol – topshiriqlar tarqatiladi va ularni bajarishga tayyorgarlik ko‘rish uyga vazifa sifatida beriladi. Tarqatmalardagi savol – topshiriqlar bilan tanishib, ularga javob topish mumkin bo‘lgan manbalarni ko‘rib va belgilab qo‘yish ikkinchi mashg‘ulotga ketadigan vaqtni bir qadar tejaydi [Мусаева М., Боймуродова.2016].

Masalan, quyidagicha tarqatmalar tuzilishi mumkin:

1- tarqatma

Sulaymon tog‘ poyiga bir kun
Ko‘milmakni qilganlar orzu
Bundan ne ne alloma o‘tgan,
Ne jahongir, nechalab shoir”

She’riy parchada shoir e’tibori nimaga qaratilgan ?

2- tarqatma

Sulaymon tog‘i yuksalib turar,
Bir elatning buyuk yodiday.

Xayron bo‘lib poyiga bugun
keluvchilar e‘tiqodidan *bandida* “*keluvchilar e‘tiqodi*” degan istehzoda
nimalar ko‘zda tutilgan?

3- tarqatma

Biroq aziz tog‘ toshlariga

Yozdirmasdan hech birin nomin

Tog‘- toshlarga nomin yozish buyuk insonlarga nima uchun kerakmas?

4- tarqatma

“tama ilinji”, “palonchilar” kabi so‘zlar va ular tashiydigan ko‘chma ma’nolar izohlang.

5- tarqatma

She‘rning so‘ngi satrlari: “betayinlar nomin ko‘tarib, soat sayin o‘sar qoyalar” tarzida tugallanishi sababi va badiiy ahamiyati haqida mulohaza bildiring, kabi

“Sulaymon tog‘i etagida o‘ylaganlarim” she‘rini o‘rgatishga bag‘ishlangan darsda o‘quvchilar she‘r matni bilan yaqindan tanishgan, o‘qituvchi rahbarligida uning besh bandini tahlil qilishgan, uyda tarqatmalardagi savol – topshiriqlarga ma‘lum darajada tayyorgarlik ham ko‘rib kelganligi Shavkat Ravhmonning ushbu asarini o‘rganishda darsni interfaol usulda tashkil etish imkonini beradi.

Interfaol usul [Sultonova G.A.2015] qo‘llanganda, asar matni o‘smirlar tomonidan mustaqil ravishda o‘zlashtiriladi va tahlil qilinadi. Ehtimol, ularning mustaqil tahlillari kutilganiday chuqur bo‘lmasligi mumkin, lekin ilmiy jihatdan unchalar asosli bo‘lmasada, mustaqil fikrlashga, o‘quv muammosini mustaqil tarzda hal etishga urinishning o‘zi katta ahamiyatga egadir.

Zero, o‘quvchilarning mustaqil fikrlay boshlashi, o‘zlarini ta‘limning obyektigina emas, balki ijrochi subyekti deb his etishlari ta‘lim jarayoni uchun o‘ta qimmatli holdir. Buni, hatto, maktab ta‘limining bosh maqsadi deyish mumkin. Bu haqda Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov “Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o‘rganmasa, berilgan ta‘lim samarasi past bo‘lishi muqarrar”[Karimov I.A.1998],- degan edilar.

“Sulaymon tog‘i etagida o‘ylaganlarim” she‘rini o‘rganish “Chig‘iriy” deb nomlanadigan interfaol usulda tahlil qilinsa [Muslimov N., Usmonbekova U. 2016], dars samaradorligi yanada oshadi. Bu usulda sinfdagi o‘quvchilar besh yoki olti kishilik kichik guruhlariga bo‘linadi. Kichik guruh a‘zolarining har biri o‘z nomeriga ega bo‘ladi. Guruhlarning a‘zolari qasidaning qolgan to‘qqiz bandi tahliliga qo‘llariga berilgan tarqatmalarga tayangan holda kirishadilar. Har bir kichik guruh tarqatmalardagi topshiriqlarni o‘zicha bajaradi, o‘z javoblarini tayyorlaydilar.

Barcha kichik guruhlarning tayyorgarligi nihoyasiga yetgach, taqdimot boshlanadi. Shunda o'qituvchi qandaydir bir nomerni, misol uchun, "4" raqamini aytadi. Har bir guruhning 4- raqamli ishtirokchisi o'z guruhining javoblarini taqdim qiladi. Shunday qilinganda, kichik guruhlardagi eng a'lochi o'quvchining har safar taqdimotchi bo'lib qolish xavfi bartaraf qilinadi.

Bir kichik guruhning to'qqiz band yuzasidan beradigan javobini eshitishga ko'p vaqt ketib qolmasligi uchun har bir guruhchadan ikkitadan savolga javob tinglanadi. Qaysi savolga qaysi nomerdagi o'quvchi javob qilsa, uning javobiga boshqa guruhlardagi ayni shu nomerli o'quvchilar munosabat bildirishlari to'ldirishlari, to'g'irlashlari mumkin. Navbatdagi savollarga beriladigan javob ham shu yo'sinda tinglanadi va muhokama etiladi. Bunday qilinsa, har qanday savolga hamisha javob bera oladigan o'quvchilargina emas, sinfdagi barcha o'smirlarning faollashishiga erishiladi.

Kichik guruhlarning taqdimoti tugagandan so'ng o'qituvchi javoblarni umumlashtiradi, kichik guruhlarini baholaydi, asarning e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan jihatlariga qo'shimcha ravishda to'xtaladi. Bir kishi bergan javobga qarab bir kichik guruhdagi barcha o'quvchilarga bir xil baho qo'yilishi juda muhimdir. Bu hol o'quvchilarda o'zaro hamkorlik tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiy ta'limning "Chig'iriq" usuli kichik guruhlardagi barcha o'quvchilarning qo'yilgan muammo yuzasidan barcha savollarga ham doim tayyor turishlarini ta'minlashi, intellektual imkoniyat va psixologik faolligi turlicha bo'lgan o'quvchilarni faolashtirishga qaratilganligi bilan samara keltiradigan metoddir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tarbiya fanini o'qitishda o'zbek she'riyatidan foydalanishning pedagogik va tarbiyaviy ahamiyati katta. O'zbek mumtoz va zamonaviy she'riyatida Vatan, milliy g'urur, ajdodlarga hurmat va ma'naviy-axloqiy qadriyatlar masalalari o'quvchilarda tarbiyaviy fazilatlarni shakllantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Shavkat Rahmonning "Sulaymon tog'i etagida o'ylaganlarim" she'ri asosida o'quv jarayonini interfaol usullar yordamida tashkil etish, o'quvchilarni matnga faol jalb qilish, vatanparvarlik va milliy o'zlik tuyg'ularini rivojlantirish usullari batafsil ko'rib chiqildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, she'riy matnlarni o'rganish jarayonida o'quvchilar nafaqat bilim olishadi, balki mustaqil fikrlash, analitik va estetik qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar.

Shuningdek, she'riyat orqali tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning metodik jihatlari -interfaol dars uslubi, kichik guruhlar bilan ishlash, matnni tahlil qilish va baholash tizimi amaliy misollar bilan asoslandi. O'quvchilarni ona yurtga bo'lgan

muhabbat, tarixiy gʻurur va milliy qadriyatlarni qadrlash ruhida tarbiyalash imkoniyatlari yoritildi.

Oʻzbek sheʼriyatidan foydalangan holda tarbiya fanini oʻqitish nafaqat maʼnaviy-axloqiy tarbiya berish, balki oʻquvchilarda estetik tafakkur va vatanparvarlik ruhini shakllantirishda samarali vosita ekanligi tasdiqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi– T:Sharq, 1998-y. 33-b.
2. Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: Maʼnaviyat. 2019.
3. Choʻlpon. Tanlangan asarlar. Toshkent: Sharq. 2016.
4. Gʻulom, G. Asarlar. Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot. 2018.
5. Hayitmetov, A Navoiy va hayot. Toshkent: Fan. . 1990.
6. Ismoilova, M. Oʻzbek sheʼriyatida vatanparvarlik gʻoyalarining tarbiyaviy ahamiyati. Pedagogik taʼlim, 2021. 3(2), 45–50.
7. Karimov, N. XX asr oʻzbek adabiyoti taraqqiyoti. Toshkent: Akademnashr. 2008.
8. Karimova, D. Mustaqillik davri oʻzbek sheʼriyatida vatan konsepti. Oʻzbek tili va adabiyoti, 2020. 4, 32–38.
9. Shavkat Rahmon. Sulaymon togʻi etagida oʻylaganlarim. Adabiyot. 7 sinf. – Toshkent. 2019
10. Quronov, D. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent: Akademnashr. 2004.
11. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. III, IV, V jildlar. Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi 2023-yil. 570-571 betlar
12. Rahmonov S. Mustaqillik davri sheʼriyatida milliy oʻzlik va Vatan obrazi. Filologiya masalalari, 2018 .2, 61–67.
13. Yoʻldoshev, Q. Choʻlpon poetikasi. Toshkent: Fan. 2016.
14. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. -Toshkent: TDPU, 2005
15. Мусаева М., Боймуродова Т. Таълим жараёнида қўлланиладиган интерфаол методлар. Услубий қўлланма. Тошкент.2016.
16. Muslimov N., Usmonbekova U., va b. Innovatsion taʼlim texnologiyalari. - Toshkent, 2015.-B.60.

REFERENCES

1. Avloniy, A. (2019). Turkiy Guliston or Ethics. Tashkent: Maʼnaviyat Publishing House.
2. Choʻlpon. (2016). Selected Works. Tashkent: Sharq Publishing House.

3. G'ulom, G. (2018). *Collected Works*. Tashkent: G'afur G'ulom Publishing House.
4. Hayitmetov, A. (1990). *Navoi and Life*. Tashkent: Fan Publishing House.
5. Ismoilova, M. (2021). The educational significance of patriotic ideas in Uzbek poetry. *Pedagogical Education*, 3(2), 45–50.
6. Karimov, I. A. (1998). *The Dream of a Harmoniously Developed Generation*. Tashkent: Sharq Publishing House.
7. Karimov, N. (2008). *The Development of 20th-Century Uzbek Literature*. Tashkent: Akademnashr Publishing House.
8. Karimova, D. (2020). The concept of the Motherland in Uzbek poetry of the independence period. *Uzbek Language and Literature*, 4, 32–38.
9. Quronov, D. (2004). *Introduction to Literary Studies*. Tashkent: Akademnashr Publishing House.
10. Rahmon, S. (2009). *Thoughts at the Foot of Mount Sulayman. Literature (Grade 7 textbook)*. Tashkent.
11. Rahmonov, S. (2018). National identity and the image of the Motherland in the poetry of the independence period. *Issues of Philology*, 2, 61–67.
12. Sultonova, G. A. (2005). *Pedagogical Mastery*. Tashkent: Tashkent State Pedagogical University.
13. Muslimov, N., Usmonbekova, U., et al. (2015). *Innovative Educational Technologies*. Tashkent.
14. Musaeva, M., & Boymurodova, T. (2016). *Interactive Methods Used in the Educational Process (Methodological guide)*. Tashkent.
15. Yo'ldoshev, Q. (2016). *Cho'lpon's Poetics*. Tashkent: Fan Publishing House.
16. *Explanatory Dictionary of the Uzbek Language*. (2023). (Vols. III–V, pp. 570–571). Tashkent: G'afur G'ulom Publishing and Printing Creative House.

